O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“YASHIL IQTISODIYOT VA ATROF-MUHITNI ASRASHDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA RAQAMLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI TO’PLAMI

2026-yil 12-oktyabr



SAMARQAND - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“YASHIL IQTISODIYOT VA ATROF-MUHITNI ASRASHDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA RAQAMLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI TO’PLAMI

2026-yil 12-oktyabr

SAMARQAND - 2026

МИНИСТЕРСТВО ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

“СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МАТЕМАТИЧЕСКОМУ МОДЕЛИРОВАНИЮ И ЦИФРОВИЗАЦИИ В ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ И ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ”

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

12 октября 2026 года

САМАРКАНД - 2026

III-SHO‘BA. OPTIMALLASHTIRISH USULLARI YORDAMIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH		
Qarshiboyev Xayrullo Qilichovich	Optimallashtirish usullari yordamida atrof-muhitni muhofaza qilish	
Akilov J.A. G‘aybulov Yu.	Nonyuton neftlarning ekspluatatsiya qudug‘ida nostatsionar harakati	
S.I. Khudoyberdiyev	Sensitivity and elasticity analysis of an integral green economy indicator based on partial derivatives	
S.I. Khudoyberdiyev	Determining the optimal level of green investment using marginal analysis	
Sharipov Qudratbek Quraltayevich	Yashil investitsiyalarni optimallashtirishda Matematik modellashtirish usullaridan foydalanish	
Xakimova Ma’mura Muxammadiyevna	Qurg‘oqchilik sharoitida suv resurslarini taqsimlashning optimal modeli	
Usanov Kamoliddin Xolboyevich	Yashil investitsiya loyihalarini tanlashda ko'p mezonli qaror qabul qilish usullari	
Usanov Kamoliddin Xolboyevich	Mashinaviy o'qitish asosida shahar havosi sifati ko'rsatkichlarini (pm2.5) prognozlash	
Usanov Kamoliddin Xolboyevich	Quyosh elektr stansiyalari ishlab chiqarishini vaqt qatorlari va lstm tarmoqlari bilan prognozlash	
Usanov Kamoliddin Xolboyevich	Yerlar degradatsiyasini gis va masofaviy zondlash asosida monitoring qilish	
Usanov Kamoliddin Xolboyevich	Aylanma iqtisodiyotda chiqindi oqimlarini kirish–chiqish balansi modeli asosida tahlil qilish	
Muxiddinov M.Sh.	Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarining ahamiyati	
Muxiddinov M.Sh.	Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarining rivojlanish holati tahlili	
Salimov Samandar Husen o’g’li	Atrof-muhitni muhofaza qilishning fizik metodlari	
Jo’lanov Hasan Komil o’g’li	Oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishda vizual va modellashtiruvchi vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	
Jo’lanov Hasan Komil o’g’li	Fizika ta’limida vizualizatsiya vositalaridan foydalanish orqali talabalarning fazoviy tafakkurini shakllantirish	
Jo’lanov Hasan Komil o’g’li	Fizika ta’limida modellashtirish metodining interfaol platformalar asosida ekologik ta’lim bilan integratsiyasi	
Jo’lanov Hasan Komil o’g’li	Oliy ta’limda fizika kurslarini vizualizatsiya va modellashtirish asosida o‘qitishning didaktik tamoyillari: yashil iqtisodiyot bilan integratsiyalashuv	
Xolmatova Asila Menglimurod qizi	O‘zbekiston tijorat banklarida onlayn kreditlash va masofaviy to‘lov xizmatlarini rivojlantirish masalalari	
Anesov Mukhtar	O’zbekiston Respublikasida atrof-muhitni himoya qilishda ‘Space Intelligence’ kompaniyasi bilan hamkorlik	
O‘razaliyev Shirinboy Bo‘ron o‘g‘li	Cheklangan resurslarni optimallashtirishning iqtisodiy-matematik modellari	
Inoyatov Qayum Yusufovich	Aholi bandligi va daromadlarini oshirishda kichik	

Muxiddinov M.Sh. Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti Marketing kafedrasi assistenti
muminjon.mukhiddinov@gmail.com
+998993545858

ERKIN IQTISODIY ZONALARDA LOGISTIKA XIZMATLARINING AHAMIYATI.

Annotatsiya. Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) iqtisodiy rivojlanishning muhim vositalaridan biri bo‘lib, ular ichki va xalqaro savdoni rivojlantirish, sarmoyalarni jalb qilish va sanoat tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashda katta rol o‘ynaydi. Ushbu hududlarning samarali ishlashi uchun esa logistika xizmatlarining ahamiyati beqiyosdir. Ushbu maqolada erkin iqtisodiy hududlarda logistika xizmatlarining tutgan o‘rni, ularning rivojlanish omillari hamda samaradorlikni oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Аннотация. Свободные экономические зоны (СЭЗ) являются одним из важных инструментов экономического развития, играя значительную роль в развитии внутренней и международной торговли, привлечении инвестиций и поддержке отраслей промышленности. Эффективное функционирование данных территорий во многом зависит от уровня развития логистических услуг. В статье анализируются роль логистических услуг в свободных экономических зонах, факторы их развития, а также пути повышения их эффективности.

Abstract. Free Economic Zones (FEZs) are one of the important instruments of economic development, playing a significant role in promoting domestic and international trade, attracting investment, and supporting industrial sectors. The effective functioning of these zones largely depends on the development of logistics services. This article analyzes the role of logistics services in free economic zones, the factors influencing their development, and ways to improve their efficiency.

Kalit so‘zlar: Erkin iqtisodiy zonalar, samarali logistika tizimi, tovar harakati, yetkazib berish, eksport, import, investor, jozibadorlik, raqamli texnologiyalar, GPS, yuk tashish.

Ключевые слова: свободные экономические зоны, эффективная логистическая система, товародвижение, доставка, экспорт, импорт, инвестор, инвестиционная привлекательность, цифровые технологии, GPS, грузоперевозки

Keywords: free economic zones, efficient logistics system, movement of goods, delivery, export, import, investor, investment attractiveness, digital technologies, GPS, freight transportation.

Erkin iqtisodiy zonalarda logistikaning tutgan o‘rni: Logistika xizmatlari erkin iqtisodiy zonalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagi asosiy jihatlar bilan bog‘liq:

- • Tovar harakatini tezlashtirish – Tovarlarning erkin harakatlanishi orqali ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi.
- • Xarajatlarni kamaytirish – Samarali logistika tizimi transport va saqlash xarajatlarini optimallashtirishga yordam beradi.
- • Yetkazib berish zanjirini takomillashtirish – Mahsulotlarning belgilangan manzilga o‘z vaqtida yetib borishini ta’minlash orqali ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.
- • Sarmoya jalb qilishni kuchaytirish – Rivojlangan logistika infratuzilmasi xorijiy investorlar uchun jozibadorlikni oshiradi.
- • Ishlab chiqarishning rivojlanishiga hissa qo‘shish – Samarali logistika tizimi orqali xomashyo va tayyor mahsulotlarni yetkazib berish jarayoni osonlashadi.
- • Eksport imkoniyatlarini kengaytirish – Mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarini xalqaro bozorga tezroq va samarali yetkazib berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish omillari: Erkin iqtisodiy hududlarda logistika xizmatlarining rivojlanishi bir qator omillarga bog‘liq bularga quydagilar kiradi:

1. Transport infratuzilmasining rivojlanganligi – Samarali yo‘l tarmoqlari, temir yo‘llar, portlar va aeroportlarning mavjudligi yuk tashish tezligini oshiradi.
2. Raqamli texnologiyalardan foydalanish – Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, masalan, avtomatlashtirilgan ombor tizimlari, GPS kuzatuv va sun’iy intellekt asosida tahlil qilish imkoniyatlari logistikani optimallashtiradi.
3. Tashqi savdo va bojxona tartiblarining qulayligi – Soddalashtirilgan bojxona protseduralari logistika xizmatlarini tez va samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi.
4. Kuchli xususiy sektor va davlat hamkorligi – Davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar va xususiy sektorning logistika infratuzilmasiga sarmoya kiritishi muhim rol o‘ynaydi.
5. Yuk tashish xizmatlarini rivojlantirish – Erkin iqtisodiy zonalar doirasida transport vositalari va terminallar sonini oshirish, logistika kompaniyalarining faoliyatini kengaytirish orqali xizmat sifatini yaxshilash mumkin.

6. Xalqaro logistika markazlari bilan integratsiya – Erkin iqtisodiy zonalardagi logistika tarmoqlari yirik xalqaro transport yo‘laklari bilan bog‘langan bo‘lsa, yuk tashish jarayoni tezlashadi va samaradorligi oshadi.

Samaradorlikni oshirish yo‘llari: Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- • Yangi logistika markazlarini tashkil etish - Erkin iqtisodiy hududlar ichida va tashqarisida zamonaviy logistika markazlari va omborlarini yaratish orqali tovar oqimini yaxshilash mumkin.
- • Elektron logistika tizimlarini joriy etish - Logistika operatsiyalarini raqamlashtirish orqali yuklarni kuzatish va boshqarish samaradorligini oshirish mumkin.
- • Xalqaro hamkorlikni kengaytirish - Xorijiy logistika kompaniyalari bilan hamkorlik qilish va tajriba almashish orqali xizmat sifatini oshirish.
- • Barqarorlik tamoyillariga e’tibor qaratish - Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ekologik toza logistika tizimlarini joriy qilish.
- • Multimodal transport tizimlarini rivojlantirish – Temir yo‘l, avtomobil, dengiz va havo transportlari o‘rtasida integratsiyalashgan multimodal logistika tizimlarini yaratish yuk tashish samaradorligini oshiradi.
- • Bojxona jarayonlarini tezlashtirish – Raqamli deklaratsiya tizimlari va bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish orqali yuklarni o‘tish jarayonini soddalashtirish.

Xulosa qilib aytganda Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlari samarali faoliyat yuritishning muhim elementi hisoblanadi. Ularning rivojlanishi tovar harakatining tezlashishi, ishlab chiqarish va savdo xarajatlarining kamayishi hamda sarmoya jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi. Transport infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali erkin iqtisodiy zonalardagi logistika xizmatlarini yanada takomillashtirish mumkin. Natijada, bu hududlar yanada raqobatbardosh bo‘lib, milliy va xalqaro iqtisodiyotga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 of January 28, 2022 "On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026" // www.lex.uz 2. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-99 of January 24, 2022 "On measures to create an effective system for the development of production and expansion of industrial cooperation in the Republic" // www.lex.uz 3. President of the Republic of Uzbekistan 14.09.2021 Resolution No. PQ-5243 "On measures to further support the participants of

special economic zones". 4. Maysak O.S. SWOT-analysis: object, factor, strategy. Problemapoiskasvyazeymejdufaktorami // Prikaspiyskiyzhurnal: upravlenie i vysokieteknologii. - 2013. - № 1 (21). - S. 151-157. 5. Madsen, Dag Øivind (2016). "SWOT analysis: a management fashion perspective". International Journal of Business Research. 16 (1): 39–56 6. Zagorodnikov A. N. Upravlenieobshchestvennymisvyazyami v biznese. Uchebnik. M: Crocus, 2013 (gl.3 «SWOT-analysis: sushchnost, tsel, soderjanie»). 7. Philip Kotler, Roland Berger, Nils Bikxoff. Strategic management of Kotleru.Luchshiepriemy i metody = The Quintessence of Strategic Management: What You Really Need to Know to Survive in Business. - M .: AlpinaPablisher, 2012. - 144 p. - ISBN 978-5-9614-2213-9.
8. Vixanskiy O. S. Strategic planning: Textbook. Moscow. MGU Publishing House. 1995

Muxiddinov M.Sh. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Marketing kafedrasi assistenti
muminjon.mukhiddinov@gmail.com
+998993545858

ERKIN IQTISODIY ZONALARDA LOGISTIKA XIZMATLARINING RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) faoliyatining rivojlanishi va mazkur hududlarda logistika xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Logistika xizmatlari sanoat kooperatsiyasi, xomashyo va butlovchi qismlarni o‘z vaqtida yetkazib berish, tayyor mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga olib chiqish, bojxona jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda investorlar uchun qulay biznes muhitini shakllantirishning muhim omili sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. erkin iqtisodiy zonalar, logistika xizmatlari, transport infratuzilmasi, ta’minot zanjiri, ombor xo‘jaligi, bojxona rasmiylashtiruvi, raqamlashtirish, eksport, investitsion jozibadorlik, logistika samaradorligi.

Kirish

Globallashuv va xalqaro ishlab chiqarish zanjirlarining kengayishi sharoitida erkin iqtisodiy zonalar mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va zamonaviy texnologiyalarni jalb etishning muhim institutsional vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq EIZ tashkil etilishi yoki rezident korxonalarga soliq va bojxona imtiyozlari berilishi o‘z-o‘zidan yuqori iqtisodiy natijani kafolatlamaydi.